



SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-mart)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2064,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 202,2 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 18,7 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1862,3 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 176,6 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga ko`paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Termiz shahrida (16,1%), Denov (4,5 %), Jarqo'rg'on (2,6 %) va Sherabod (2,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,7% ga o'sdi va 202,2 mld. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,8 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1862,3 mld. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,9 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,2 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga koʼra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirdorlik sub`ektlarining ulushi boʻyicha Muzrabot (99,3 %), Uzun (98,6 %), va Denov (97,4%) ,

tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (31,6 %), Termiz (14,2%) va Jarqo'rg'on tumanlarida(5,8 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (21,9 foiz), Denov tumani (21,1 foiz), Sho'rchi (8,9 foiz), Sherabod (5,9 foiz) va Jarqo'rg'on (5,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



**Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirdorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	202,2	118,7	1862,3	103,9
Termiz Sh.	142,7	236,1	309,3	94,0
Oltinsoy	2,7	40,1	87,0	106,4
Angor	3,8	55,1	90,4	106,0
Boysun	3,6	59,2	86,6	105,3
Muzrabot	0,5	17,3	80,4	105,1
Denov	11,4	55,6	424,4	107,0
Jarqo'rg'on	6,5	65,7	106,2	106,4
Qumqo'rg'on	4,0	51,9	86,7	105,7
Qiziriq	3,3	52,2	89,2	105,2
Sariosiyo	3,7	55,6	85,8	105,4
Termiz	7,2	80,7	43,6	105,5
Uzun	1,1	20,5	78,9	107,3
Sherobod	5,3	50,8	116,3	107,4
Sho'rchi	6,4	56,4	177,5	104,5

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 801,7 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Termez shahri (3110,8 ming.so`m), Denov (1157,4 ming.so`m), va Sho'rchi tumanida(902,6ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qumqurg'on tumanida (380,3 ming.so`m), Sariosyo (442.4 ming.so`m) va Uzun tumanida (468,4 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	801,7	102,9
Termiz Sh.	3110,8	115,0
Oltinsoy	519,9	99,2
Angor	726,9	100,2
Boysun	765,4	100,0
Muzrabot	583,6	99,5
Denov	1157,4	102,1
Jarqo`rg`on	527,6	100,3
Qumqo`rg`on	380,3	98,8
Qiziriq	544,6	98,8
Sariosiyo	442,4	99,5
Termiz	475,3	98,5
Uzun	468,4	99,0
Sherobod	642,8	100,3
Sho`rchi	902,6	99,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 46,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,2 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- mart)

Yanvar-mart oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 538,1 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajmi 2019 yil yanvar-mart oyilari yakunlariga ko`ra, 366,7 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,2 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (92,6%), Angor (88,2%), Sariosiyo (85,1%) va Boysun (85,0%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 31,8 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Qumqo'rg'on(66,3%), Muzrabot (63,3%) va Jarqo'rg'on (53,6%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	538,1	109,0	171,4	118,9	366,7	104,9
Termiz Sh.	100,0	94,5	41,7	83,2	58,3	104,6
Oltinsoy	25,0	119,5	10,6	143,9	14,4	106,3
Angor	30,1	107,2	3,6	117,0	26,5	106,0
Boysun	2,1	89,0	0,3	48,4	1,8	104,5
Muzrabot	25,6	116,6	16,2	127,3	9,4	101,8
Denov	115,4	112,7	23,5	149,7	91,9	106,0
Jarqo'rg'on	44,2	127,9	23,7	160,3	20,5	103,7
Qumqo'rg'on	24,9	133,4	16,5	155,1	8,4	104,5
Qiziriq	33,4	110,4	9,0	132,1	24,4	104,1
Sariosiyo	19,7	105,5	2,9	106,9	16,8	105,2
Termiz	57,8	105,5	4,3	101,6	53,5	105,8
Uzun	12,0	116,2	4,3	150,3	7,7	103,0
Sherobod	35,1	108,7	9,9	129,6	25,2	102,2
Sho'rchi	12,8	101,2	4,9	98,8	7,9	102,8

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Boysun tumanida (89,0 %) va eng yuqori o'sish esa Qumqo'rg'on tumanida (133,4%) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
(0371) 230-85-82